

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –
психология фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий
университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI 11-18

Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li

BAQTRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

Нуритдинова Нодира Сирожовна

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

Чориев Шоҳрух Холтура ўғли

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА 29-38

Жумаева Шоира Бердияровна

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ 39-43

Jo'rayev Muxriddin Xasanovich

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

Муқимова Рисолат Рустамжон қизи

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ 57-69

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI 70-75

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI 76-86

Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ 87-92

Исламтудинова Дина Файзрахмановна

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН 93-102

Qobiljon Isaev

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH 103-110

09.00.00 – FALSAFA FANLARI*Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) 111-116

Расулов Зоҳиддин Усарович

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ 117-122

Тавмурадов Жамшид Элмурадович

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС 123-128

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI 129-132

Muxtorova To'tixon Solijonovna

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR 133-137

Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI 138-142

Ahmedova Dilrabo

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIIY POTENSIALI 143-150

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI 151-159

Seytnazarova Injayim

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI 160-168

Tukhtakhodjaeva Zulfya

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY 169-174

Abdusalamov Doniyor Togayali ogli

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES 175-179

Axmedov Anvar Botirovich

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR 180-184

Aminov Farrukh Komiljon Ugli

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES 185-193

Sharipov Bobur Salimovich

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA 194-201

Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202-205

Samatov Farxod Muminovich

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) 206-210

Kendjayeva Zemfira

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI 217-221

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLAR 222-226

Шарапова Лола Станиславовна

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

Ҳакимова Мастура Файзиллаевна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) 233-239

Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI 240-245

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI 246-250

Багаутдинова Ильмира Салаватовна

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ 251-255

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE 256-268

Алиев Асилбек Кадирович

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА 269-275

Hong Weixing

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA 276-284

Султанова Сабохат Алишеровна

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 285-290

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI 291-298

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ 299-304

Khalikov Khayot

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА .. 312-317

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O'YINLARNING O'RNI 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI
HAQIDA 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI
DASTURLARDAN FOYDALANISH 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI 393-399

Nishonov Nodir Alimjanovich

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI 400-404

Xidirova Durdona Muxtorovna

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI 405-408

Received: 10 December 2024
Accepted: 15 December 2024
Published: 25 December 2024

Article / Original Paper

UNIQUE FEATURES OF SCIENTIFIC DISCOURSE

Abduganieva Zebuniso Abduhafizovna

PhD candidate of Uzbekistan State World Languages University

Abstract. This article explores the concepts of scientific discourse and scientific text, highlighting their differences. Additionally, it provides information about Uzbek linguists who have studied scientific discourse and their research, as well as the unique features of scientific discourse. The article reveals that scientific text is not limited to terms and neutral vocabulary but can also convey the author's emotional perspective.

Keywords: discourse, text, neutral vocabulary, emotional vocabulary.

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdug'aniyeva Zebuniso Abduhafizovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy diskurs va ilmiy matn tushunchalari, ularning bir-biridan farqi haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari o'zbek tilshunosligida ilmiy diskursni o'rgangan olimlar va ularning tadqiqotlari, ilmiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Maqola ilmiy matn faqatgina terminlar, betaraf leksikadan iborat bo'lib qolmay unda muallif o'z munosabatini emotsional tarzda ham ifodalashi mumkinligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: diskurs, matn, neytral leksika, emotsional leksika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N24>

Hozirgi kunda dunyo tilshunosligida ilmiy diskursni o'rganishga katta e'tibor berilmoqda, chunki til nafaqat ma'lumot uzatish vositasi, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy kuchlarni aks ettiruvchi kuchli vositadir. Globallashuv davrda ilmiy jamiyatda olimlar va bo'layotgan muloqot ilmiy diskursda amalga oshirilmoqda. Ilmiy diskursni o'rganishda ilmiy matnlarning ahamiyati juda katta bo'lsa-da, bunday matnlar o'zbek tilshunosligida yetarlicha o'rganilmagan. Shu o'rinda ilmiy matn va ilmiy diskurs tushunchalarini bir-biridan farqlab olish lozim. Ilmiy matn va ilmiy diskurs o'rtasidagi farq ularning kommunikativ va funksional maqsadlarida yotadi. N.T. Xomutovanning fikricha **ilmiy matn** — bu muayyan ilmiy bilimlarni, faktlar va dalillarni taqdim etish maqsadida yozilgan aniq va rasmiy tuzilgan matndir. Bu matnlar, odatda, o'ziga xos ilmiy metodlarga asoslanib, maxsus ma'lumotlarni taqdim etadi va o'quvchilarni aniq xulosalarga yetkazish uchun yoziladi [9;16]. Ilmiy matnning asosiy vazifasi, ilmiy tushunchalarni aniq va ravshan ifodalash orqali ilmiy hamjamiyatda o'zaro fikr almashish va ilmiy qarorlar qabul qilishdir. Shuningdek, ilmiy matnlar ilmiy jurnallarda, kitoblarda va boshqa akademik manbalarda tarqatiladi, ularning strukturasida aniq qoidalarga rioya qilinadi.

Boshqa tomondan, **ilmiy diskurs** — bu tilning jamiyatdagi kuch, hokimiyat va madaniyat bilan bog'liq rolini o'rganishga qaratilgan yondashuvdir. Ilmiy diskurs, ilmiy

matndan farqli o'laroq, nafaqat bilimlarni uzatish, balki til orqali ijtimoiy munosabatlar va hokimiyatni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi [9;16]. Ilmiy diskurs o'quvchilarni ilmiy g'oyalarga faqat ma'lumot uzatish orqali emas, balki ular orqali mavjud ijtimoiy va madaniy tuzilmalarni ko'rsatish va shakllantirishda qatnashishga undaydi. Masalan, ilmiy diskursda til ishlatish, o'zaro munosabatlarda mavjud kuchlarni, hukmron g'oyalarni va jamiyatdagi tengsizliklarni aks ettirishi mumkin.

Ilmiy matn va ilmiy diskursni ajratish juda muhimdir, chunki bu farq ilmiy tadqiqotlarning metodologiyasini va taqdimot usullarini tushunishga yordam beradi. Ilmiy matn, aniq ilmiy fikrlarni isbotlashda va tushuntirishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ilmiy diskurs esa, til orqali ilmiy jarayonlarning jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy kontekstlarini tahlil qilishda o'ta zarurdir [10;21]. Diskursni tahlil qilish, ayniqsa, ilmiy muhitda jamiyatdagi kuch va hokimiyatni qanday aks ettirishini tushunishga imkon beradi, bu esa ilmiy qarorlar qabul qilish va amaliyotlar haqida yanada kengroq tushuncha hosil qilishda yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkin, ilmiy diskurs ilmiy muloqot jarayonidir, bu jarayonda narsa, hodisa va ularning xususiyatlari to'g'risida yangi bilim hosil qilinadi. Ilmiy diskurs muammoli vaziyatni aniqlaydi va unga aniq yechim taklif etadi. Ilmiy diskurs turli kommunikativ vazifalar ta'sirida vujudga kelgan ilmiy uslub va janrlarda yuzaga chiqadi. Boshqa so'z bilan aytganda, ilmiy diskurs ilmiy muloqot akti bo'lib, uning natijada izchil yozma yoki og'zaki nutqiy asar hosil bo'ladi, ilmiy matn esa ilmiy diskurs va uning modelining mahsuloti hisoblanadi.

Quyidagi rus olimlari ilmiy matnni o'rganishgan: O.S. Axmanova, S.T.Bogatirova, L.A. Gorodetskaya, A.I. Komarova, Y.B. Yakovleva, M. N. Kojina, L.M. Alekseeva, Y.A. Bajenova, N.V. Danilevskaya, M.P. Kotyurova va boshqalar. Ko'pchilik tilshunoslar ilmiy matnlarning ma'lum bir aspektini o'rganishgan, xolos ammo ilmiy matnlarga murakkab yaxlit birlik sifatida yetarlicha e'tibor berilmagan, ilmiy matnlarning lingvistik, ijtimoiy va kommunikativ-kognitiv jihatlarini o'zaro bog'liqlikda o'rganishmagan.

V. E. Chernyavskaya ta'rifiga ko'ra ilmiy matn ilmiy uslubning ifodasi va aksi – matnni shakllantirish jarayonida yangi bilimlarni yetkazish muammosini hal qiladigan sub'yektning kognitiv va kommunikativ nutq harakatlarining maxsus usuli. Ilmiy matnning mazmuni bilimni verballashtirishdir[10;22-23b.]. Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, V. E. Chernyavskaya ilmiy matnga kognitiv jihatdan yondoshgan.

O'zbek tilshunosligida matn va diskurs muommolari haqidagi ilk lingvistik tadqiqotlar Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. Sh.Safarov diplomatik diskursning leksik va frazeologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lsa, dialogik diskursdagi nopredikativ birliklarning sotiopragmatik tadqiqi L.R.Raupova tomonidan o'rganilgan. Media diskursi D.M.Teshaboyeva, N.M.Ibragimova, harbiy diskurs H.A.Dadaboyev, A.M.Kurganov, F.I.Ergasheva, S.E.Erkinov, D.I.Xakimovalar, badiiy diskurs D.U.Ashurova, R.S.Sayfullaeva, A.E.Mamatov, M.Yo'ldoshov va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, ilmiy diskurs M.Mukarramov, M.X.Hakimov, N.Mahmudov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ilmiy matn aniq maqsadga yo'naltirilgan va o'ziga xos morfologik hamda pragmatik xususiyatlarga ega bo'lgan aloqa vositasidir. Uning asosiy vazifasi – ob'ektiv haqiqatni aks ettirish, yangi bilimlarni yaratish va mavjud bilimlarni sistemalashtirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, ilmiy matnning quyidagi morfologik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: terminologik boylik, aniqlik, obyektivlik, intertekstuallik. Bundan tashqari, ilmiy matnlar janriga ko'ra yana qo'shimcha farqli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, tezislar qisqa va aniq bo'lishi, maqolalar esa tahlil va dalillarga boy bo'lishi kerak.

Ilmiy matnning eng muhim xususiyatlaridan biri sohaviy terminlarning ko'proq ishlatilishi, grammatik qurilishda mantiqiy bog'liqlik, izchillik, aniqlik, bo'laklar to'laligi bilan farqlanadi [5;4]. Ilmiy matnlardagi terminlar ilmiy diskursning turli sohalarida turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, aniq fanlardan matematika, geometriya kabi fanlarda terminlar ijtimoiy fanlarga oid matnlarga nisbatan ko'proq bo'lishi mumkin.

Antroposentrik yondashuvga ko'ra aynan **maqsadlilik** matnning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Matn paydo bo'lishining yana bir shartlaridan biri uning manzilligidir. Har qanday matn kimgadir qaratib yozilgan. O'quvchi matndan olingan asosiy ma'noni tushunishi uchun muallif matnni tushunarli va yo'naltirgan bo'lishi lozim. Ilmiy matnlar ham ma'lum bir maqsadda yaratiladi. Masalan darslik kitoblar hali sohada ko'p bilimga ega bo'lmaganlar uchun mutaxassislar tomonidan yaratiladi. Shuning uchun ham bunda asosiy maqsad bilimlarni tushuntirish, yetkazib berishdir, ammo magistr yoki doktorantlar tomonidan yozilgan dissertatsiyalar bilimni isbotlash, nomoyon qilish, ishontirish maqsadida yaratiladi. Xulosa qilib aytganda, ilmiy matn olimning tartibli bilimlar tizimini tashkil etuvchi ilmiy diskursiv faoliyati mahsulidir, shuningdek, olimning tajribasining yuzaga chiqishidir.

Ilmiy matnlarda **intertekstuallik** nihoyatda muhim belgilardan biridir. Intertekstuallik bu – bir matnda boshqa matnlarning aks uzviy bog'liqlikda aks etishidir [1;47]. Intertekstuallik ilmiy matnlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u ilmiy dalillarni mustahkamlash, bilimlarni uzatish va akademik muloqotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Baxtinnig tilning dialogik nazariyasida, har qanday matnda muloqot bo'lishi ta'kidlanadi [1;43]. Ilmiy matnlarda boshqa matnlar shunday jamlanadiki, ular bir butunlikni aks ettiradi. Intertekstuallikning quyidagi shakllari bor: iqtiboslar, havolalar, parafrazalar. Iqtibos bu boshqa mualliflarning fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri keltirishdir. Havolalar ilmiy matnda boshqa manbalarga yo'naltiruvchi vosita bo'lib, ular tadqiqotlarning manbalarga asoslanganligini ko'rsatadi. Bu ilmiy matnning ishonchliligini oshiradi. Muallif boshqa matnlarning mazmunini o'z so'zlari bilan ifodalashi parafrazardir. Parafrazalar o'quvchi uchun muallifning fikrlarini tushunarli qilib taqdim etishga xizmat qiladi.

Intertekstuallik ilmiy matnlarda uchta asosiy vazifani bajaradi: bilimlarni uzatish va saqlash, dalillarni mustahkamlash hamda ilmiy muloqotni rivojlantirish. U ilmiy matnlarni avvalgi tadqiqotlar bilan bog'lab, yangi bilimlarni eski bilimlar zanjiriga qo'shish orqali ilmiy rivojlanishning uzluksizligini ta'minlaydi. Shuningdek, muallifning boshqa ilmiy manbalarga murojaat qilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini kuchaytiradi va ilmiy hamjamiyatda ishonch uyg'otadi [1;45]. Intertekstuallik, shuningdek, matnlarni bir-biri bilan bog'lab, ularni akademik muloqot va munozaralarning bir qismi sifatida shakllantiradi. O'zbek tilshunosligida ilmiy matnlarning bu xususiyati hali yetarlicha o'rganilmagan.

Tilshunos M. Xalilovning fikricha, ilmiy matnlarda xususan, ilmiy-ommobop matnlarda ba'zan obrazlilik va emotsionallikni ta'minlash uchun badiiy usullardan ham foydalaniladi [8; 50-51 b.]. Bundan tashqari, M.X.Hakimovning fikricha, ilmiy matnda ham muallif xususiy munosabatini emotsional tarzda ifodalashi mumkin[3;149]. Masalan, Albatta, Chomskiy ta'limoti ko'pchilikning diqqatini jalb qilmay qolmadi. Zero, uning asosiy g'oyasi lisonning inson faoliyatida tutgan o'rni va umuman lison hamda tafakkur faoliyatlarining tutashtiruvchi rishtalar hamohangligiga tayanadi. Ammo ushbu ta'limot g'oyalari hamma tomonidan bir xilda qabul qilinishini ham kutish noto'g'ri. Bekamu ko'st g'oya absolyut haqiqat ko'rinishidagina bo'lishi mumkin. Chomskiy esa hozircha paygambar emas va menimcha, u bunga da'vo ham qilayotgani yo'q. U ham tanqidga bardosh bera oladi [6;30].

Yuqoridagi misolning dastlabki jumlasida muallif modal so'z *albatta* orqali berilgan fikrga xayrixohligini bildirgan bo'lsa, oxirgi jumlada muallif ko'pchilikning fikriga

qo'shilmaligini *menimcha* modal so'zi yordamida ifodalangan. Bu modal so'z yordamida muallif berilayotgan fikrlar unga tegishli ekanligini va matnda berilayotgan muhokamaga o'zining subyektiv munosabatni ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ilmiy matn faqatgina terminlar, betaraf leksikadan iborat bo'lib qolmay unda muallif o'z munosabatini emotsional tarzda ham ifodalashi mumkin.

Ilmiy diskursda individuallik iloji boricha bilintirmaslikka harakat qilinadi. Buning asosiy sababi ilmiy matnlarning markazida sub'yektlar emas ilmiy bilim ya'ni ob'yekt yotishidir. Bunga erishish yo'lida ilmiy matnlarda ko'proq fe'lning majhul nisbat shakli qo'llaniladi [8;53]. Aniqlik nisbati ishlatilganda ham gapning egasi odatda jonli emas jonsiz predmet bo'lishi ko'proq kuzatiladi [4;5790]. Ammo ingliz tilida yozilgan ko'plab ilmiy maqolalarni tadqiq qilgan Li (2022) hozirgi kunda ilmiy diskursda mualliflar majhul nisbatdan ko'ra egasi jonsiz predmet bo'lgan aniq nisbatdagi fe'llarni ishlatishni ma'qul ko'rayotganligini aniqlagan. Bunday jarayon o'zbek ilmiy diskursida hali o'rganilmagan. Keyingi tadqiqotlarda maqola muallifi mana shu jarayonni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy diskurs o'zbek tilshunosligida ma'lum darajada o'rganilgan. Ko'pchilik olimlar ilmiy matnlarda badiiy tasviriy vositalar kam ishlatilganligi tufayli bunday matnlarning hammaga ma'lum xususiyatlari sifatida sohasiy terminlarning ko'proq ishlatilishi, grammatik qurilishda mantiqiy bog'liqlik, izchillik, aniqlik, bo'laklar to'laligi bilan chegaralanishadi. Aslida, har qanday matn muallif va o'quvchi o'rtasidagi muloqot asosiga qurilar ekan, unda muallifning obyektga nisbatan qandaydir munosabati aks etmay qolmaydi. Shunday ekan ilmiy matnlarda ham xususiy emotsional munosabat elementlari nomoyon bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Fairclough, N. (2003). *Analysing discourse: Textual analysis for social research*. Routledge. 279 pp.
2. Gee, J. P. (2010). *How to do discourse analysis: A toolkit*. Routledge. 206 pp.
3. Hakimov M. "O'zbek pragmalingsistikasi asoslari". Toshkent: "Akadernashr", 2013. B. 176.
4. Li, Z. Is academic writing less passivized? Corpus-based evidence from research article abstracts in applied linguistics over the past three decades (1990–2019). *Scientometrics* 127, 5773–5792 (2022). <https://doi.org/10.1007/s11192-022-04498-0>
5. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. –Toshkent: Fan, 1984.
6. Safarov Sh. Pragmalingsvistika. Monografiya. –Toshkent. 2008. B.318.
7. Van Deyk, T. A. (1997). *Discourse as structure and process*. Sage Publications. 355 pp.
8. Xalilova M. O'zbek tili stilistikasi asoslari. – Farg'ona. 2009. B. 104.
9. Хомутова, Т.Н. Типология дискурса: интегральный подход // Вестник Южно-Урал. гос. ун-та. Серия: Лингвистика. – 2014.– Т. 11, № 2
10. С. Чернявская В. Е. Дискурсивный анализ и корпусные методы: необходимое доказательное звено? Объяснительные возможности качественного и количественного подходов. Вопросы когнитивной лингвистики. 2018, 2: 31–37. DOI: 10.20916/1812-3228-2018-2-31-37.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).